



DEVIANT XULQ-ATVORLI O'QUVCHILAR VA ULAR BILAN ISHLASHDA QO'LLANILADIGAN KORREKSION MASHG'ULOTLAR

Jumamuratova Inobat Ollayarovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani 32-son maktab psixologi

Sharipova Raxila Yuldashevna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani 29-son maktab psixologi

Annotatsiya Mazkur maqolada deviant xulq-atvorli o'quvchilar tushunchasi, ularning psixologik xususiyatlari, kelib chiqish sabablari hamda ular bilan ishlashda samarali bo'lgan korreksion mashg'ulotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, maktab sharoitida psixologik-pedagogik yondashuvlar, profilaktik choralar va individual ishlash metodlari yoritilgan.

Kalit so'zlar Deviant xulq-atvor, o'quvchi, psixologik korreksiya, tarbiya, agressiya, ijtimoiy moslashuv, pedagogik yondashuv, profilaktika.

Kirish Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning xulq-atvori, ijtimoiy moslashuvi va psixologik holati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim o'quvchilarda jamiyat qoidalariga zid bo'lgan xulq-atvor shakllari kuzatiladi. Bunday holatlar "deviant xulq-atvor" tushunchasi bilan ifodalanadi. Deviant xulq-atvorli o'quvchilar bilan ishlash o'qituvchi, psixolog va ota-onalardan alohida e'tibor va tizimli yondashuvni talab qiladi. Chunki bu holatni o'z vaqtida aniqlamaslik va to'g'ri ishlamaslik o'quvchining kelajakdagi ijtimoiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Deviant xulq-atvor — bu jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy va huquqiy me'yorlardan chetga chiqadigan xatti-harakatlar majmuidir. Bunday xulq-atvor quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

- intizomsizlik
- agressivlik
- yolg'on gapirish
- darslardan qochish
- zararli odatlarga moyillik
- tengdoshlar bilan konfliktlar

Deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablari shulardan iboratki. Deviant xulq-atvor bir nechta omillar ta'sirida shakllanadi:

Oilaviy omillar: e'tiborsizlik yoki haddan tashqari nazorat, oiladagi nizolar, noto'g'ri tarbiya usullari

Maktab muhitidagi omillar: o'qituvchi bilan ziddiyat, sinfdagi moslashuv muammolari, o'zini past baholash

Individual psixologik xususiyatlar: hissiy beqarorlik, impulsivlik, o'zini boshqara olmaslik

Ijtimoiy omillar: noto'g'ri do'stlar ta'siri, ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri



Date: 18 May 2026

Deviant o'quvchilarning psixologik xususiyatlari ko'rib chiqadigan bo'lsak. Bunday o'quvchilarda odatda quyidagi belgilar kuzatiladi:

- tez jahllanish
- e'tibor yetishmasligi
- o'ziga ishonchsizlik yoki ortiqcha ishonch
- nizolarga moyillik
- mas'uliyat hissining pastligi. Bu xislatlarni tuzatish uchun deviant xulq atvorli o'quvchilar bilan maktab psixolog ota-onalar hamkorlikda korreksion mashg'ulotlar o'tkazilishi shart. Deviant xulq atvorni tuzatishda korreksion mashg'ulotlarning ahamiyati shunda-ki, korreksion mashg'ulotlar — bu o'quvchilarning salbiy xulq-atvorini tuzatishga qaratilgan maxsus psixologik-pedagogik faoliyatdir.

Ularning asosiy maqsadi: ijobiy xulq-atvorni shakllantirish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, hissiy barqarorlikni oshirish

Korreksion mashg'ulot turlari

1. Psixologik treninglar: muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, o'zini boshqarish mashqlari, empatiya rivojlantirish. **Misol:** "Men seni tushunaman" mashqi — o'quvchilar bir-birining his-tuyg'ularini tushunishga harakat qiladi.

2. Rol o'yinlari: O'quvchilar turli vaziyatlarni sahnalashtiradi va to'g'ri xulq variantlarini o'rganadi. **Misol:** Konfliktli vaziyatni tinch yo'l bilan hal qilish sahnasi.

3. Art-terapiya: rasm chizish, ranglar orqali his-tuyg'ularni ifodalash. Bu usul o'quvchining ichki kechinmalarini ochib berishga yordam beradi.

4. Guruhiy mashg'ulotlar: jamoada ishlash, ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish.

5. Individual suhbatlar. Psixolog o'quvchi bilan alohida ishlaydi: muammoni aniqlaydi, yechim yo'llarini ko'rsatadi. Deviant xulq-atvorli o'quvchilar bilan ishlashda pedagog va psixolog quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim: o'quvchini tushunish va qo'llab-quvvatlash, jazolashdan ko'ra tushuntirish, ijobiy rag'batlantirish, individual yondashuv zarur. Maktab psixologi avvalom bor profilaktik ishlarga alohida e'tibor qaratishi zarur hisoblanadi. Qisqa so'z bilan aytadigan bo'lsak "Kasalni davolagandan ko'ra uni oldini olgan muhim" maqoliga amal qilgan holda ish tutishi kerak.

Deviant xulq-atvorni oldini olish uchun:

- sog'lom psixologik muhit yaratish o'zaro do'stlik va tushunishni xislarini o'quvchilarda shakllantirish.
- ota-onalar bilan hamkorlik o'rnatish, har xil treninglar tarqatma materiallar va har xil qiziqarli mashg'ulotlar orqali bolasini taqdiriga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish.
- tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish.
- o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish.

Xulosa Deviant xulq-atvorli o'quvchilar bilan ishlash murakkab, ammo muhim jarayondir. To'g'ri yondashuv, sabr va tizimli korreksion mashg'ulotlar orqali bunday o'quvchilarning





Date: 18 May 2026

xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin. Bu esa ularning kelajakda jamiyatga moslashgan, barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya – Toshkent, 2019.
3. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya – Toshkent, 2017.
4. Internet manbalari va ilmiy maqolalar.